



**O‘ZBEK VA NEMIS NUTQIY ETIKETIDAGI O‘XSHASH VA FARQLI  
JIHATLAR TADQIQIGA DOIR**

*Nazarova Shahnoza Ismat qizi  
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek va nemis nutq etiketi birliklari qiyosi xususida fikr yuritiladi. Ma’lumki, har bir xalqning o‘ziga xos urf-odat hamda an’analari mavjud. Geografik joylashuv ham ularning shakllanishi va sayqallanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Nutqiy etiket birliklari ham xuddi shu tarzda shakllanadi va rivojlanib boradi. Bugungi jadal rivojlanayotgan zamonda qardosh bo‘lgan va bo‘lmagan tillarni qiyosiy va chog‘ishtirma usulda o‘rganib, tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Boisi, davlatlar va millatlar orasida siyosiy, madaniy, iqtisodiy va diplomatik aloqalar o‘rnatish rivojlanishning asosiy omildir. Bunda tilshunoslar va tarjimonlar ko‘prik vazifasini o‘taydi: tillarni to‘g‘ri o‘rganish va talqin etish, tarjima borasida ziyraklik va zukkolik ular uchun bosh mezondir.

**Kalit so‘zlar:** nutqiy etiket, axloq me’yorlari, muloqot xulqi, pragmatika, sotsiolingvistika, mehmonnavozlik, sizlash va senlash murojaat shakli

**Аннотация:** В данной статье рассматривается сравнение единиц узбекского и немецкого речевого этикета. Как известно, у каждого народа есть свои традиции и обычаи. Географическое положение также влияет на их формирование и полировку. Таким же образом формируются и развиваются единицы речевого этикета. В наши бурно развивающиеся времена важно изучать и изучать родственные и неродственные языки сравнительным и сравнительным образом. Поэтому установление политических, культурных, экономических и дипломатических связей между государствами и нациями является ключевым фактором развития. При этом лингвисты и переводчики выступают в роли мостов: правильное изучение и интерпретация языков, проницательность и находчивость в переводе являются для них главным критерием.

**Ключевые слова:** речевой этикет, моральные нормы, коммуникативное е, pragmatika, социолингвистика, гостеприимство, форма обращенияповедени

**Abstract:** This article will talk about the comparison of Uzbek and German speech etiquette units. It is known that each people has their own traditions and traditions. Geographic location also has its influence on their formation and bleaching. Speech etiquette units are formed and developed in the same way. In today's rapidly developing time, it is important to study and study the languages that are and are not sister languages in a comparative and educational way. Therefore, the establishment of political, cultural, economic and diplomatic

relations among states and nations is a major factor in development. In this, linguists and translators serve as bridges: the correct study and interpretation of languages, elegance and ingenuity in translation are the main criteria for them.

**Keywords:** politeness, moral standards, communication behavior, pragmatics, sociolinguistics, hospitality, forms of address

Nutqiy etiket birliklarining lingvistik asoslari kommunikativ pragmatika, sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu birliklar tilshunoslikda quyidagi jihatlar asosida o‘rganiladi:

Nutqiy etiket birliklari pragmatik nuqtayi nazardan kommunikativ vaziyatga bog‘liq ravishda shakllanadi. Masalan: ma’ruzachining ko‘zlagan maqsadi hurmat, xushmuomalalik, diplomatiyadan iborat bo‘lishi mumkin. Tinglovchining statusi va yoshi singari unsurlar ya’ni ustoz–shogirdlik, rasmiy–norasmiy muloqot kabilar ham pragmatic omil sanaladi. Suhbat mavzusi va konteksti uning rasmiy uchrashuv yoki do‘stona moloqot ekanligidan dalolat beradi.

Sotsiolingvistik asosga ko‘ra, nutqiy etiket birliklari ijtimoiy tabaqalanish, kasb va mintaqaviy lahjalarga bog‘liq ravishda o‘zgaradi. Rasmiy uslubda “Hurmatli ustoz, siz bilan maslahatlashmoqchiman” kabi jumla qo‘llanilsa, norasmiy uslubda esa “Uka, maslahat kerak edi.” tarzida muloqot amalga oshiriladi.

Semantik nuqtayi nazardan tadqiq etilganda, nutqiy etiket birliklari ma’no jihatidan hurmat, e’tibor va xushmuomalalikni ifodalovchi so‘z va iboralarga asoslanadi. Masalan, muloyim nutq (iltifot, olqish)dan foydalanilganda “Osuda tun tilayman!”kabi, uyg‘unlashtiruvchi birliklarni qo‘llaganda esa “Uzr, sizni bezovta qildim.”singari jumlalar ishlatiladi.

Strukturaviy-sintaktik asosga ko‘ra, nutqiy etiket birliklari odatda tayyor formulalar shaklida bo‘ladi va murakkab (“Kecha bezovta qilgan bo‘lsam, uzr so‘rayman.”) hamda standart iboralar (“Rahmat”, “Iltimos”, “Xush kelibsiz.”) qo‘llaniladi.

Turli tillar va madaniyatlarda nutqiy etiket birliklari farqlanishi bois madaniy-lisoniy asoslar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Masalan, o‘zbek tilida kattalarga nisbatan hurmat belgisi sifatida “siz” ishlatilsa, boshqa tillarda bunday aniq farqlash bo‘lmashigi mumkin. Nemis tilida ham o‘zbek tilidagi singari “Siz” (Sie) hurmat shakli mavjud, ammo uni qo’llash vaziyatlari biroz farq qiladi. Masalan, o‘zbeklarda yoshi katta insonlar, ota-ona, aka-opa kabilarga doimo siz deb murojaat qilish odat tusiga kirgan. Nemis tilida esa sizlash va senlash an’anasi ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq bo‘lib, muayyan qoidalarga asoslanadi. Ular o‘zaro hurmat va ierarxiyani saqlash uchun muhim rol o‘ynaydi. Siz (Sie) – rasmiy murojaat yoshi kattalarga, ish joyida hamkasblar va rahbarlarga, notanish odamlarga yoki birinchi marta ko‘rishganda, rasmiy vaziyatlarda (do‘kon, bank, davlat idoralarida) qo‘llaniladi.

Misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin. Könnten Sie mir bitte helfen? – “Menga yordam bera olasizmi?” Wie heißen Sie? – “Sizning ismingiz nima?” Woher kommen Sie? –

Qayeriksiz? Yana ayrim muhim jihatlar ham bor: “Sie” bilan birga fe’l ko‘plik shaklida ishlatiladi (Masalan, Sie sind – “Siz” (hurmat bilan)va du bist – “Sen”). Odatda familiya bilan birga ham ishlatilishi mumkin: masalan, Herr Hofmann (janob Hofmann), Frau Günter(Gyunter xonim).

Nutqiy etiket birliklari milliy an'analar, muloqot me'yorlari va madaniyatga bog‘liq bo‘lib, til tizimining muhim qismi hisoblanadi.

O‘zbek madaniyatida mehmon kutish odobi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mehmon mehmondo‘stlik va hurmatning timsoli hisoblanadi. Mehmon kutish o‘zbek an'analarida ezgulik, saxovat va ehtirom bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi:

O‘zbeklarda mehmonni oldindan taklif qilish mumkin, lekin kutilmagan mehmon ham xush qarshi olinadi. Mehmon kelishi oldidan uy tozalab, dasturxon hozirlanadi. Mehmon kutish oila uchun sharaf sanaladi. Mehmon har qanday vaqtida kelishi mumkin, shuning uchun har doim mehmon uchun biror narsa tayyor turishi odatiy hol sanaladi.

Mehmon eshik oldida yoki hovlida kutib olinadi, unga iliq so‘zlar bilan salom beriladi. Katta yoshdagi mehmonlarning qo‘llari siqiladi, ba’zan erkaklar quchoqlashib ko‘rishishlari mumkin. Mehmon ichkariga taklif qilinganda, unga eng yaxshi joy beriladi. Katta yoshli mehmonlarga alohida hurmat ko‘rsatiladi.

Mehmon kelishi bilan dasturxon tuzilib, choy tortiladi. Mehmon uchun dasturxonning eng to‘kin-sochini chiqarishga harakat qilinadi, mezbon o‘zining imkoniyatiga qarab taomlar tayyorlaydi. Dasturxon atrofida mehmon bilan iliq va samimiy suhbat quriladi.

Mehmon dasturxon atrofida hurmat bilan o‘tirishi, ortiqcha tantana yoki ko‘ngilsizlik keltirib chiqarmasligi kerak. Ovqatlanishda odob qoidalariga rioya qilish, kattalarga hurmat bilan murojaat qilish muhim. Mehmon mezbonga minnatdorchilik bildirib, ortiqcha noqulaylik tug‘dirmaslikka harakat qilishi lozim.

Mehmon ketayotganida, mezbon uni eshik yoki darvoza oldigacha kuzatib qo‘yadi. Mehmon ketishidan oldin yana choy yoki shirinlik taklif qilinishi mumkin. Mehmon mezbonga duo qilib, minnatdorlik bildirishi odatiy hisoblanadi. O‘zbek mehmondo‘stligi milliy qadriyatlarning ajralmas qismi bo‘lib, mehmon har doim hurmat bilan kutib olinadi va ehtirom bilan kuzatiladi.

Nemis madaniyatida mehmon kutish an'analarini tartib-intizom va xushmuomalalik bilan ajralib turadi. Mehmon kutish odobi quyidagi asosiy qoidalari shakllangan:

Nemislardan odatda odindan rejalashtirishni yaxshi ko‘rishadi, shuning uchun mehmonni oldindan taklif qilish muhim hisoblanadi. Taklif rasmiy yoki norasmiy shaklda bo‘lishi mumkin, lekin do‘stlar o‘rtasida ham oldindan kelishib olish odat tusiga kirgan. Mehmon kelishidan oldin uy egasi barcha tayyorgarlik ishlarini bajaradi: ovqat tayyorlash, stol tuzish, ichimliklar tanlash va boshqalar.

Taklifga javob qaytarish juda muhim hisoblanadi. Agar taklif qabul qilinsa, belgilangan vaqtida kelish kerak, kechikish yaxshi qabul qilinmaydi. Mehmon qo‘l berib salomlashadi va odatda mezbon uchun kichik sovg‘a olib keladi (gullar, shirinlik, sharob, kitob yoki shunga

o‘xshash narsalar). Kirishda poyabzalni yechish odatiy emas, lekin mezbon so‘rasa, hurmat yuzasidan yechish mumkin.

Ovqatlanish tartibli va madaniyatli bo‘lishi kerak. Stol ustida shovqin qilish, qoidalarga rioya qilmaslik nojo‘ya holat hisoblanadi. Sanchqi va pichoqdan to‘g‘ri foydalanish muhim. Ovqatdan keyin idishlarni yuvishga yordam berish taklif qilinishi mumkin, lekin mezbon ruxsat bermasa, bunga urinmaslik kerak. Nemislar ovqat paytida samimiy suhbat qilishni yoqtirishadi, lekin juda shaxsiy mavzular haqida so‘z ochish noo‘rin bo‘lishi mumkin.

Agar mehmondorchilikning ertasi kuni mezbonning ish kuni bo‘lsa, mehmon uzoq qolib ketmasligi kerak. Ketishda minnatdorchilik bildirish juda ham muhim “Danke für die Einladung” (“Taklif uchun rahmat”) kabi iboralar orqali buni ifodalash mumkin. Keyingi safar mezbonni o‘z uyingizga taklif qilish odob-axloq me’yorlaridan hisoblanadi.

Nemis madaniyatida mehmon kutish va mehmon bo‘lish qoidalariga qat’iy rioya qilish hurmat va madaniyatilik belgisi sanaladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek va nemis xalqlari madaniyatida nutqiy etiket birliklari turli vaziyatlarda turlicha qo‘llaniladi. Ularni o‘rganish va chog‘ishtirma aspektda tadqiq etish zamonaviy tilshunosning dolzarb masalalaridandir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Hakimov M. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. 176b
2. Tatsachen über Deutschland / P. Hintereder [u.a.]. – Frankfurt/Main: Societäts Verl., 2007. – 196 S.
3. Bęza, S. Eine kleine Landeskunde der deutschsprachigen Länder / S. Bęza. – WSiP, 2009. – 281 S.
4. Кохановская А. Л. [и др.]. Страноведение Германии. Landeskunde Deutschlands. – Минск: МГЛУ, 2021. – 208 с.
5. Iskandarova Sh. O‘zbek nutqi odatining muloqot shakllari. Avtoreferat. – Samarqand: 1993